

„MUHAMMAD AMIR NAQIBBEK MADRASASI TARIXI“

O'zbekiston-Finlandiya

Pedagogika instituti Tarix

kafedrası assistenti **Nabiyeva**

Naima. 4-kurs

Sirtqi bo'lim Tarix

yo'nalishi 412-guruh

talabasi **O'rinov Umidjon**.

Annotatsiya: Ushbu maqolada XVIII asirda Kattaqo'rg'on hududida Buxoro amiri noibi **Muhammad Amir Naqibbek** tomonidan qurilgan va hozirda tamirlanib Kattaqo'rg'on tumani obod maskanga aylantirilgan yurtimizning bebaho madaniy merosi va Kattaqo'rg'on tumani tarixiga oid moddiy va madaniy yodgorlik bo'lib kelayotgan madrasaning qurilish tarixi haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: **Muhammad Amir Naqibbek madrasasi, Payshanba, Kattaqo'rg'on, Amir vakili,**

Yurtimizning barcha hududlari o'zining boy qadimiy tarixiga ega shu jumlagan Kattaqo'rg'on tumani ham o'zining ko'p asirlik tarixiga va qadimiy memoriy yodgorliklari bilan milliy madaniy merosimizga o'z hissasini qo'shib kelmoqda.

**„Payshanba shaxarchasi va Muhammad Amir Naqibbek
Madrasasi tarixi“**

Qadimiy va shonli tarixga ega yurtimizning ajralmas qismi bo'lgan „**Payshanba**“ shaxarchasini tarixiy o'tmishini o'rganish va u xaqidagi malumotlarni to'plashimiz va yosh avlodlarga hali ular bilmagan tariximizni yetkazishimiz kerak va zarurdir. Payshanba shaxarchasi Kattaqo'rg'on tumanidagi eng qadimgi tarixiy joylardan biri bo'lib bevosita Buyuk Ipak yo'li tarmoqlaridan birida joylashganligi va bu joy qadimiy savdo markazlaridan biri bo'lganligi ham uning tarixiy ahamiyati qanchalik yuqori ekanligini bildirib turadi. Milodiy **1501-yilda** bo'lib o'tgan

Zahiriddin Muhammad Bobur va **Muhammad Shayboniyxon** o'rtasidagi „**Saripul**” jangi ham aynan **Payshanba** shaxarchasi atrofidagi **Saripul tepaligida** bo'lib o'tgan. Payshanba so'zi juda qadimdan ma'lum bo'lib „**Panj**-besh va „**Shanba**-kun” degan forsha so'zlarning qo'shilishidan hosil bo'lib „**Beshinchi kun**” degan ma'noni anglatadi. Xozirgi kunda saqlanib qolgan yodgorliklardan **Muhammad Amiri Naqibbek** madrasasi, **Qalandarxona** jomiy masjidi, **Dovg'on ota**, **Zanjirli ota**, **Said Jaloliddin** qabiristonlari mavjud bo'lib ayrimlari qayta tamirlanmoqda. Payshanba shaxarchasining markazida joylashgan Muhammad Amiri Naqibbek maqdrasasi ham avval haroba ahvolda edi. Uzoq yillar davomida hechkimning qadami yetmagan bu madrasa 1 asir oldin Payshanba shaxrining ko'rki va shaxarchadagi oliy o'quv yurti sifatida xizmat qilgan edi. Bu maqdrasa qanchadan qancha tolibi-ilimlarga bilim berib xalqimizga xizmat qilgan edi. Bu madrasa **1791-yilda** Muhammad Amiri Naqibbek tomonidan qurilgan bo'lib Sovet davrigacha tolibi-ilm tayyorlashga xizmat qilib turgan. Keyinchalik diniy bilim berishni taqiqlovchi qanunlar joriy etilgach **1928-yilda** yopilib qarovsiz qoldirildi va harobaga aylandi. Bu madrasani qurdirgan kishining ismi **Muhammad** bo'lib xalq orasida uning lavozimiga nisbat berilib ismiga „**Amiri Naqibbiy**” yani „**Amir vakili**” degan nom bilan atalgan. Shu tariqa bu inson tomonidan qurdirilgan madrasa xalq orasida „**Muhammad Amiri Naqibbek**” madrasasi degan nom bilan mashhur bo'lgan. Bu insonning qayerlik ekanligi hech qayerda yozib qoldirilmagan lekin shu narsa ma'lumki Buxoro hukumdori **Amir Shohmurod (1785-1800)** tomonidan Kattaqo'rg'on „Qoradaryo va Xatirchi hududlarga bu kishini o'z vakili etib tayinlagan. Muhammad Amiri Naqibbek boshqa joylarga nisbattan Payshanba qishlog'i aholisining ilim marifatga intilishi va harakatlarini ko'rib o'zi ham marifatli kishi bo'lganligi uchun yerli aholini ilim olishi va boshqa hududlardan ham tolibi-ilimlar kelib tahsil olishi uchun Payshanba qishlog'i hududida madrasa qurishni niyyat qiladi va buni amalga oshiradi. Uning bu harakati ham o'z davrining ilg'or marifatparvar insoni ekanligini ko'rsatadi. Muhammad Amiri Naqibbek bundan tashqari 1804-yilda Kattaqo'rg'on shaxrida va keyinchlik Xatirchida ham madrasalar qurdiradi.

Payshanba hududida joylashgan Muhammad Amiri Naqibbek madrasasi kirish qismi arkali peshtoq va undagi eski darvoza butun saqlangan bo'lib hozirgi kunda ham mavjud. Madrasa gumbazi bizgacha saqlanib qolmagan bo'lib hozirda **1791-yilda** qurilishi paytida o'rnatilgan ayvon qismini ko'tarib turgan qadimiy **12 ta** yog'och ustunlar saqlanib qolgan. Madrasa **20ta** hujradan iborat bo'lib, ikkala tarafdin **8 tadan** jami **16 ta** hujra tolibi-ilimlar uchun yotoqxona vazifasini bajargan bo'lib, o'rtadagi katta xona bu talabalar uchun dars beriladigan xona vazifasini bajargan uning yon taraflaridagi **3ta xona** esa omborxona va kutibxonalar vazifasini bajargan.

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng ko'plab tarixiy obidalarimiz qatorida Amiri Naqibbek madrasasiga ham e'tibor qaratilib qayta tamirlanadi va Kattaqo'rg'on tuman „**O'lkashunoslik muzeyiga aylantiriladi**“ bu muzeyning tashkil etilishiga o'zining ulkan hissasini qo'shib jonbozlik ko'rsatgan Kattaqo'rg'on tumani madaniyat bo'limi boshlig'i marifatparvar inson **Ilhom Fayziyevning** hizmatlari beqiyosdir. Men yosh tarixchi sifatida shunday ziyoli va marifatparvar inson bilan bir joyda va bir davirda tug'ilganimdan fahirlanaman.

Muhammad Amiri Naqibbek madrasasi tarkibida tashkil qilingan Kattaqo'rg'on tumani o'lkashunoslik muzeyi o'zining madaniy merosi bilan bu hudud tarixini yanada yaxshiroq o'rganishimiz uchun katta imkoniyat yaratadi. Hozirgi vaqtda madrasa hujralarida Kattaqo'rg'on tumanidagi hududlarining tarixiga oid yozma va moddiy manbalar saqlanmoqda. Kattaqo'rg'on o'lkashunoslik muzeyi shartli ravishda **14 ta** qisimga bo'lingan bo'lib har bir hudud uchun alohida joy ajratilgan va har bir hudud uchun shu joy tarixini aks ettiruvchi arxeologik topilmalar va qadimiy buyumlar joylashtirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1) Samarqand viloyati ensiklopediyasi. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2011.
- 2). Kattaqo'rg'on tarixi (to'plam). – Kattaqo'rg'on shahar hokimiyati, 2020.

- 3). Kattaqo'rg'on tumani arxivi materiallari. – Samarqand viloyati davlat arxivi, fondlar: muzeylar, madaniyat.
- 4). Kattaqo'rg'on shahridagi O'lkashunoslik muzeyining yillik hisobotlari (ichki nashrlar yoki muzey fondidan olinadigan materiallar).
- 5). Maqolada keltirilgan bazi malumotlar O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti 4-kurs Sirtqi Tarix 412-guruh talabasi Umidjon O'rinovning Muzeydagi mustaqil tadqiqotlari va o'rganishlari asosida to'plagan.